

**COVID-19 TA'SIRI NATIJASIDA GEPATOBILIAR TIZIMDAGI KLINIK
O'ZGARISHLAR**

N.A.Tillaboyev

Andijon davlat tibbiyot instituti Ichki kasalliklar kafedrası assistenti

tillaboyev12@gmail.com

Dolzarbligi: Kasallar organizmida SARS-CoV-2 ga javoban immun tizimini giperergik qo'zg'alishi, kuchli tizimli yallig'lanish sindromiga, o'pka alveolyar to'qimasi va boshqa a'zolarining og'ir o'zgarishiga alteratsiyasi va septik shok rivojlanoshiga sababchi bo'ladi.

Tekshiruv usullari va predmeti: Autopsiya tadqiqot materiallariga xamda kasallikning klinik manzarasiga asosan minimal darajada COVID-19 ning quyidagi morfologik va klinik turlarini ajratish mumkin: yurak, miya, ichak, buyrak, jigar, diabetik, tromboembolik (o'pka arteriyasining tromboemboliyasida), septik (bakterial va miktetik sepsis mavjud bo'lmaganda), COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda oshqozon- ichak trakti shikastlanishining asosiy patogenetik mexanizmlari sifatida virusning epiteliotsitlarga bevosita ta'siri, sitokinli bo'ron ichak neyroregulyatsiyasiga bilvosita ta'sir qiladi.

Natijalar va muhokama: COVID-19 ning kritik xolati sitokinli to'fonning turlaridan biri bo'lib, uning namoyon bo'lishida birlamchi va ikkilamchi gemofagotsitar limfogistiotsitoz yoki makrofaglarning faollashish sindromi xisoblanadi. Sitokin bo'roni keltirib chiqargan o'ziga hos, virusli SARS-CoV-2-endotelit deb nomlangan, patogenezida mikrosirkulyator oqimning shikastlanishi muhim rol o'ynaydi. COVID-19da jigar shikastlanishi: bir nechta tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki covid-19 infeksiyasida jigar shikastlanishi, asosan gepatotsitlar o'rtacha sitolizi va jigar transaminazalari darajasining oshishi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon virusning gepatotsitlarga bevosita ta'siri natijasida kelib chiqadi.

Xulosa. Bemorning ishtaxasini pasayishi, gipoalbuminemiyanı bartaraf qilish, o'pka ventilyatsiyasini tiklash bilan antiagregant, antikoagulyant va albatta gepatoprotektorlar berish sitokinli bo'ronga qarshi kurashish bemorlarda davo muolajalarni samarali bo'lganligi jigar sinamalarini meyorga kelishi bemor shikoyatlarini kamayishi dinamikada bemor holatini yaxshilanib borishi davolash ishlarini tog'ri borayotganligini ifodalab beradi. Covid-19 fonida jigar disfunksiyasi uchun o'ziga xos gepatotropik terapiya tamoyillari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Davolashda asosiy ro'l bemorlarning holatini yetarlicha baxolash, o'z vaqtida to'g'ri muolajalar olib borishga asoslanadi.